

CHET TILLARINING O'RGANISHNING AHAMIYATI VA ADABIYOTNING TILNI O'ZLASHTIRISHDAGI O'RNI

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Mamasaoliyev Sultonmurod Olimjon o'g'li

E-mail:sultonmurod mamasoliyev01@gmail.com

[Tel:+998330082805](tel:+998330082805)

Ilmiy rahbar: Muqimjon Axunov Muhammadaminovich
(PHD) Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,dotsent

E-mail:muqimjon.axunov@bk.ru

[Tel:+998979977443](tel:+998979977443)

Annotasiya: Chet tillarini o'qitish va ularning adabiyoti bilan tanishtirish O'zbekistonda zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat tilni o'rganishni, balki madaniy almashinuv, dunyoqarashni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Chet tillarini o'qitishning ahamiyati, adabiyot bilan tanishtirishning o'rni va samarali usullar haqida fikr yuritish muhimdir.

Kalit so'zlar: Xorijiy investitsiya, truzim, dialog, monolog, kognitiv fikrlash, metafora, idiomatik ifoda, Shakespear asarlari, Richar Brome "The City Witt" asari

Annotation: Teaching foreign languages and introducing their literature is one of the important directions of modern education in Uzbekistan. This process not only involves learning a language but also contributes to cultural exchange, broadening worldviews, and developing international cooperation. It is important to discuss the significance of teaching foreign languages, the role of literature in this process, and effective methods of instruction.

Key words: Foreign investment, Tourism, Dialogue, Monologue, Cognitive thinking, Metaphor, Idiomatic expression, Shakespeare's works, Richard Brome's "The City Witt"

Аннотация: Преподавание иностранных языков и ознакомление с их литературой являются одним из важных направлений современного

образования в Узбекистане. Этот процесс включает не только изучение языка, но и способствует культурному обмену, расширению кругозора и развитию международного сотрудничества. Важно рассмотреть значимость преподавания иностранных языков, роль литературы в этом процессе и эффективные методы обучения.

Ключевые слова: Иностранные инвестиции, Туризм, Диалог, Монолог, Когнитивное мышление, Метафора, Идиоматическое выражение, Произведения Шекспира, Произведение Ричарда Брома "The City Witt"

O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kengaytirmoqda. Chet tillarini bilish, ayniqsa ingliz, rus, xitoy va koreys tillarini o'rganish, bu aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, turizmni rivojlantirish va texnologiyalarni o'zlashtirish chet tillarini biluvchi mutaxassisiz amalga oshirish qiyin. Bundan tashqari chet tillarini o'rganish insonning dunyoqarashini boyitadi va tolerantlikni oshiradi. Til o'rganish miya faoliyatini yaxshilaydi, xotirani mustahkamlaydi va kognetiv fikrlash qobiliyatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki yoki undan ortiq tillarni biluvchi odamlar muammolarni tezroq hal qilish va vaziyatga tog'ri baho berish qobiliyatiga ega. Chet tillarini bilish o'quvchilar va talabalar uchun xorijiy universitetlarda tahsil olish, ilmiy ishlar olib borish va zamonaviy bilimlar bilan tanishish imkoniyatlarini ochadi. Bu O'zbekistonda ta'lim va fan sohasidagi rivojlanishga hissa qo'shadi.

Chet tillarini o'qitishda, adabiyot asarlaridan foydalanish samarali usullardan biridir. Adabiyot orqali tilni o'rganish tilning badiiy jihatlari, idiomatik ifodalar, metaforalar va har bir millatga xos badiiy uslublar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bu tilni chuqurroq o'rganishga va tushinishga yordam beradi. Har bir asar muayyan davr va madaniyatni haqida ma'lumot beradi. Adabiyot orqali o'qituvchi va o'quvchilar turli mamlakatlarning tarixi, madaniyat va qadriyatlarini o'rganishlari mumkin. Adabiy asarlardagi dialoglar va monologlar orqali nutq qobiliyati, so'z boyligi va grammatik qoidalarni o'rganish osonlashadi. Bu

o'quvchilarning o'zi o'rganiyanayotgan tilida gapirish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarni faol qatnashishiga asoslangan metodlar, masalan, rolikli o'yinlar, turli xil debatlar, loyihalar va guruh ishlari samarali hisoblanadi. Texnologiyalardan foydalanish ham til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, onlayn platformalardagi tilga doir kontentlar kabi texnologik metodlar til o'rganishni osonlashtiradi. xorijiy asarlaridan foydalanish orqali o'quvchilarga chet tilidagi adabiy asarlarni o'qish, ularni tahlil va muhokama qilish mashg'ulotlari samarali usullardan biridir. Bu usul tilni o'rganishni qiziqarli qiladi va o'quvchilarning madaniy bilimlarini oshiradi. Maktablar va universitetlar chet tillarini o'qitishda madaniy tadbirlar, til olimpiadalari va almashinuv dasturlarini tashkil qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni amaliy til qo'llashga undaydi.

Yana qo'shimcha qilsak, chet tillarining oson va tushinarliroq o'qitish usulilaridan bir bu – adabiyotdir. Adabiyot asarlari til o'rganish jarayonida quyidagi jihatlarda muhim rol o'ynaydi

Birinchisi: Leksikani Boyitish, ya'ni, adabiyot asarlari orqali o'quvchilar yangi so'zlar va iboralar bilan tanishishadi. Bu ularning lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Masalan, roman yoki hikoyalarda turli mavzular (sevgi, do'stlik, tabiat, tarix) haqida so'zlashiladi, bu esa o'quvchilarga turli sohaga oid so'zlarni o'rganish imkoniyatini beradi va keyinchalik bu lug'at boyligi bilan o'qish va yozish bo'limida qiyinchilikka uchramaydi

Ikkinchisi: albatta grammatikani chuqurroq tushunish, adabiyotda qo'llanilgan grammatik qurilmalar o'quvchilarga qoida va istisnolarni amaliy misollar orqali o'rganish imkoniyatini beradi. Masalan, she'rlarda qo'llanilgan metaforalar yoki romanlardagi murakkab gap tuzilmalari grammatikani tushunishni osonlashtiradi. "It rains cats and dogs" iborasi ingliz tilida kuchli yomg'ir yog'ishini ifodalash uchun qo'llaniladi. Ba'zi tadqiqotchilar iboraning kelib chiqishini 17-asrga borib taqalishini ta'kidlashadi. Masalan, dramaturg Richard Brome 1652-yilda "The City Witt" asarida "It shall rain dogs and polecats" (Bu itlar va tulkilardan iborat yomg'ir

yog'adi) deb yozgan.yoki bu iboraning yana bir kelib chiqish sababi: Drenaj tizimlari va o'lik hayvonlar: 17-asr Yevropasida drenaj tizimlari yaxshi rivojlanmagan bo'lib, kuchli yomg'ir paytida ko'chalarda to'plangan suv bilan birga o'lik hayvonlar ham oqib ketgan. Bu hodisa odamlar orasida kuchli yomg'irni "itlar va mushuklar yog'ishi" bilan bog'lashiga olib kelgan.

Va so'ngisi : Madaniyatni O'rganish, adabiyot madaniyatni tushunishning eng yaxshi manbalaridan biridir. Har bir adabiy asar o'z davri, muhiti va qadriyatlarini aks ettiradi. Masalan, ingliz adabiyotidan Jane Austen asarlari orqali 19-asr Angliya jamiyatini, yoki Mark Tvenning asarlari orqali Amerika tarixini o'rganish mumkin. Har bir til o'rganishda darajalar bo'lganidek adabiyot tanlashda ham darajalar bor. Masalan: Qisqa hikoyalar va she'rlardan foydalanish asosan boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun juda qulaydir. Ular qisqa va tushunarli bo'lgani uchun o'quvchilarga yangi so'zlar va grammatik qoidalarni o'rganishda yordam beradi.Lekin Yuqori darajadagi o'quvchilar uchun romanlar va pyesalar kengroq til va madaniyatni o'rganish imkoniyatini beradi. Masalan, Shakespear pyesalari orqali ingliz tilining tarixiy rivojini o'rganish mumkin.Agar etibor bersak

- "Assassination" (qotillik) — "Macbeth" pyesasida birinchi marta ishlatilgan.

- "Bedazzled" (ko'zni qamashtirilgan) — "The Taming of the Shrew" asarida uchraydi.

- "Lonely" (yolg'iz) — Shakespeare bu so'zni zamonaviy ma'noda birinchi bo'lib ishlatgan yozuvchi hisoblanadi va grammatikkaga ham yetarlicha zamonavilashish kiritgan insondir. U quyidagi o'zgartirishlarni amalyotda qo'llagan .

"Do" yordamchi fe'lining keng qo'llanilishi:

Shakespeare asarlarida "do" yordamchi fe'li savol va inkor shakllarida keng qo'llanila boshladi. Masalan:

"Do you not know me?" (Hozirgi shakli: "Don't you know me?")

Bu o'zgarish zamonaviy ingliz grammatikasining asoslaridan biriga aylandi.

- Fe'l shakllarining qisqarishi:

Shakespeare asarlarida fe'llarning qisqa shakllari keng qo'llanilgan. Masalan:

"'Tis" ("It is" ning qisqartmasi) — "Hamlet"da: "'Tis a consummation devoutly to be wished

Shakespeare ingliz grammatikasiga bevosita yangi qoidalar kiritmagan, lekin uning asarlari orqali tilning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. U fe'l shakllarini soddalashtirdi, yangi so'zlar va iboralar kiritdi, gap tuzilmasini moslashuvchan qildi va she'riy uslubni grammatikaga uyg'unlashtirdi. Shakespeare ta'siri hozirgi kunda ham davom etmoqda, bu esa uning asarlarini ingliz tilining tarixiy rivojlanishini o'rganishda noyob manba qiladi.

Xulosa qilsa: Chet tillarini o'qitishda adabiyotdan foydalanish til o'rganishni qiziqarli va samarali qilishning eng yaxshi usullaridan biridir. Adabiyot orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki madaniyat, tarix va insoniy qadriyatlarni ham o'rganishadi. O'qituvchilar adabiyotni o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirishlari mumkin. Kelajakda adabiyotdan foydalanishni kengaytirish chet tillarini o'qitish samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. William Shakespeare "Macbeth", "The Taming of the Shrew" asarlari
2. Ben Crystal & David Crystal – Shakespeare's Words: A Glossary and Language Companion (2002)
3. Louise M. Rosenblatt – Literature as Exploration (1938)